МЕХАНИЗМ ФОРМИРОВАНИЯ И РЕАЛИЗАЦИИ УПРАВЛЕНЧЕСКИХ РЕШЕНИЙ В ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ ПРЕДПРИЯТИЯХ В РАМКАХ РИСК-МЕНЕДЖМЕНТА.....	806
Ахмедова Нилуфар Шукратовна, Курбонбекова Мохичехра Туробжоновна	
RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA SOLIQ MA'MURCHILIGI USLUBIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	819
Umurzak Ablakulovich Radjabov	
TOVARLAR VA XIZMATLARNI TABAQALASHTIRISH STRATEGIYASINING XUSUSIYATLARI	825
Sodiqov Miraxror Abbos o'g'li	
AUDITORLIK TEKSHIRUVINI REJALASHTIRISHDA XAVF-XATARLARNI BAHOLASHNING INNOVATSION USULLARI VA ULARNI OPTIMALLASHTIRISH YO'LLARI.....	830
Saidova Sevaraxon Abdumo'min qizi	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLAR SANOAT SEKTORIDA SIRKULAR BIZNES-MODELLARNI YASHIL MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	834
Isamuxamedov Boxodir Baxramovich	
РОЛЬ ГОСУДАРСТВА В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОСТИ ЭКСПОРТНО-ОРИЕНТИРОВАННОЙ ИНДУСТРИАЛИЗАЦИИ	838
Бобоев М. Р.	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ УСТОЙЧИВО-ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ВОЗМОЖНОСТИ АДАПТАЦИИ ПРАКТИК SMART TOURISM ДЛЯ КУЛЬТУРНО-ИСТОРИЧЕСКИХ РЕГИОНОВ (НА ПРИМЕРЕ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ)	844
Усманова Азиза Баходировна	
ENERGY MANAGEMENT STRATEGIES FOR HYBRID ELECTRIC VEHICLES: A COMPREHENSIVE REVIEW.....	849
Asretdinova L.J., Gulnora Sh.Y.	
PAHTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI BOSHQARISH VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	864
B.Q. Madartov	
SINXRON GENERATORNING O'Z-O'ZIDAN CHAYQALISH JARAYONINI TAHLIL QILISH	867
Bekishev Allabergen Yergashevich, Zayniyeva Oliyaxon Egamberdiyevna, Kurbonov Najmiddin Abduxamidovich, Samadov Ilyos Azamat o'g'li	
SUG'URTA SOHASINING IQTISODIY-HUQUQIY MOHIYATI VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI: NAZARIY ASOSLAR, MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR	875
G'oziyeva Aziza Abdusalomovna	



SUG'URTA SOHASINING IQTISODIY-HUQUQIY MOHIYATI VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI: NAZARIY ASOSLAR, MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR

G'oziyeva Aziza Abdusalomovna

Termiz davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

ORCID: 0000-0002-5001-4724

Annotatsiya. Maqolada sug'urta sohasining tarixiy rivojlanishi, iqtisodiy va yuridik mohiyati hamda raqamli transformatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Soha nafaqat iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashda, balki fuqarolarning mulkiy manfaatlarini himoya qilishda ham muhim instrument sifatida ko'rib chiqiladi. Tarixiy manbalar sug'urtaning insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Sug'urta tizimi yuridik va iqtisodiy kategoriya sifatida shakllangan bo'lib, uning asosiy vazifasi sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalanuvchilar yoki sug'urta qildiruvchilarning moliyaviy zararini kamaytirish hamda ularning mulkiy manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Zamonaviy davrda sug'urta tizimining raqamli transformatsiyasi — Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (YAAT), elektron polislar, CRM/ERP tizimlari, sun'iy intellekt hamda fraud-kontrol tizimlari orqali amalga oshirilishi sug'urta kompaniyalarining samaradorligini oshiradi va bozor shaffoqligini ta'minlaydi. Maqolada shuningdek milliy qonunchilikni takomillashtirish, xodimlarning raqamli kompetensiyasini oshirish va xorijiy tajribani tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta, sug'urta hodisasi, sug'urtalovchi, sug'urta qildiruvchi, moliyaviy xavfsizlik, raqamli transformatsiya, Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi (YAAT), elektron polislar, CRM/ERP tizimlari, sun'iy intellekt, fraud-kontrol tizimi, mulkiy manfaat, qonunchilik, sug'urta bozori.

Abstract. The article analyzes the historical development of insurance, its economic and legal essence, and the processes of digital transformation in the insurance sector. Insurance is considered an important instrument not only for ensuring economic stability and financial security but also for protecting the property interests of citizens. Historical sources indicate that insurance has existed since the early stages of human development. The insurance system has been formed as an economic and legal category whose main function is to reduce financial losses and protect the property interests of policyholders in the event of an insured occurrence. In modern conditions, the digital transformation of the insurance system is implemented through the Unified Automated Information System (UAIS), electronic insurance policies, CRM/ERP systems, artificial intelligence technologies, and fraud control systems, which increase the efficiency of insurance companies and ensure market transparency. The article also provides recommendations for improving national legislation, enhancing employees' digital competencies, and implementing international best practices.

Keywords: insurance, insured event, insurer, policyholder, financial security, digital transformation, Unified Automated Information System (UAIS), electronic policies, CRM/ERP systems, artificial intelligence, fraud control system, property interests, legislation, insurance market.

Аннотация. В статье анализируются историческое развитие страхования, его экономическая и юридическая сущность, а также процессы цифровой трансформации страхового сектора. Страхование рассматривается как важный инструмент не только обеспечения экономической стабильности и финансовой безопасности, но и защиты имущественных интересов граждан. Исторические источники свидетельствуют о том, что страхование существовало еще на ранних этапах развития человеческого общества. Страховая система сформировалась как экономическая и правовая категория, основная задача которой заключается в снижении финансовых потерь страхователей и защите их имущественных интересов при наступлении страхового случая.

В современных условиях цифровая трансформация страховой системы осуществляется посредством Единой автоматизированной информационной системы (ЕАИС), электронных страховых полисов, систем CRM/ERP, технологий искусственного интеллекта и систем fraud-контроля, что способствует повышению эффективности страховых компаний и обеспечению прозрачности рынка. В статье также представлены рекомендации по совершенствованию национального законодательства, развитию цифровых компетенций сотрудников и внедрению зарубежного опыта.

Ключевые слова: страхование, страховой случай, страховщик, страхователь, финансовая безопасность, цифровая трансформация, Единая автоматизированная информационная система (ЕАИС), электронные полисы, системы CRM/ERP, искусственный интеллект, система fraud-контроля, имущественные интересы, законодательство, страховой рынок.

KIRISH

So'nggi o'n yilliklar mobaynida sug'urta sohasi nafaqat milliy va global iqtisodiyotning eng muhim va strategik tarmoqlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda, balki jamiyat hayotida moliyaviy xavfsizlikni ta'minlash, barqarorlikni mustahkamlash va iqtisodiy muammolarni yumshatishda asosiy institutsional vazifalarni bajaruvchi mexanizm sifatida ham o'z o'rnini mustahkamladi.

Shu davrda iqtisodiy jarayonlarning tobora murakkablashuvi, global moliya bozorlaridagi raqobatning kuchayishi, texnologik integratsiyaning kengayishi hamda raqamli transformatsiyaning tezlashuvi sug'urta kompaniyalarining ichki va tashqi operatsiyalarini samarali va shaffof tarzda qayta tashkil etishni, shuningdek mijozlarga yuqori darajadagi individual yondashuvni joriy etishni talab qilmoqda.

Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt tizimlari, katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili, blokcheyn texnologiyasi va IoT (Internet of Things) qurilmalari kabi ilg'or yechimlarning keng joriy etilishi sug'urta kompaniyalariga nafaqat yangi xizmatlar va mahsulotlarni yaratish imkonini beradi, balki mijozlar ehtiyojlarini chuqur o'rganish, ularning xavf profillarini aniqlash va individual hamda optimallashtirilgan sug'urta xizmatlarini taqdim etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Raqamlashtirish jarayoni kompaniyalarga ichki operatsiyalarni avtomatlashtirish, xarajatlarni optimallashtirish, jarayon samaradorligini oshirish va resurslarni maksimal darajada samarali taqsimlash kabi strategik afzalliklarni taqdim etadi. Shu orqali raqamli transformatsiya mijozlar tajribasini yaxshilash, xizmatlarning tezkor, shaffof va sifatli bo'lishini ta'minlash, shuningdek individual sug'urta mahsulotlarini yaratish va ularni mijozlar ehtiyojlariga to'liq moslashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili kompaniyalarga mijozlarning xatti-harakatlarini, moliyaviy imkoniyatlarini, ehtiyojlarini va xavf profillarini chuqur o'rganish, xavflarni aniqlash va boshqarish hamda narx siyosatini optimallashtirish imkonini beradi. Bu esa sug'urta kompaniyalariga faoliyatini aniq prognozlash, strategik rejalashtirishni amalga oshirish va resurslarni eng samarali tarzda boshqarish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, ushbu jarayon kompaniyalarga bozordagi o'zgarishlarga tezkor javob berish va yangi raqamli xizmatlarni joriy etishda sezilarli ustunliklar yaratadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga xizmat qiladigan tarmoqlar – tijorat banklari, zamonaviy moliya va soliq tizimi, audit, sug'urta vositalari va birja faoliyatini rivojlantirmay turib, ma'rifatli bozor sari aniq qadam tashlash haqida gap bo'lishi mumkin emas.

Albatta, "sug'urta" kecha yoki bugun paydo bo'lgan tushuncha emas. Iqtisodchi olimlar T. Malikov va X. Shennaevlar ta'kidlaganidek, insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlarida ham sug'urta bilan bog'liq munosabatlar mavjud bo'lgan. Ibtidoiy jamoa tuzumida urug' va qabila shaklida yashagan kishilar oldindan ko'rib bo'lmaydigan, turli hodisalardan saqlanish maqsadida oziq-ovqat zaxiralarini yaratganlar. Ayrımlari sodir bo'lgan suv toshqinlari yoki qurg'oqchilik kabi noxush hodisalarni xudoning qarg'ishi deb qabul qilgan.

Nima bo'lganda ham, o'sha davrlarda kutilmagan va inson irodasiga bog'liq bo'lmagan voqea-hodisalar yuz berishi natijasida ko'riladigan zararlarni qoplash uchun zaxiralar tashkil etilganligi shubhasiz [Malikov T., Shennaev X., 2003].

Rossiyalik olim M. Ivanovning fikricha, eramizdan avvalgi 1792–1750 yillarda qadimgi Bobil davlatini boshqargan shoh Xamurappi davrida savdo karvoni a'zolari yo'lga chiqishdan avval o'zaro kelishuvga ega bo'lganlar [Ivanov M., 2004]. Ushbu kelishuvga asosan, agar biror karvon a'zosining mol-mulki yo'qolgan, o'g'irlangan yoki qarog'chilar tomonidan talangan bo'lsa, bu zarar karvon a'zolari tomonidan qoplab berilgan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda sug'urta sohasining tarixiy rivojlanishi, iqtisodiy va yuridik mohiyati, shuningdek raqamli transformatsiya jarayonlari o'rganildi. Ishda analitik, taqqoslash, statistik tahlil va case-study metodlaridan foydalanildi. Milliy va xorijiy qonunchilik, ilmiy adabiyotlar hamda sug'urta kompaniyalarining amaliy faoliyati asosida sug'urta tizimi yuridik va iqtisodiy kategoriya sifatida tahlil qilindi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalar – YAAT, elektron polislar, CRM/ERP tizimlari va sun'iy intellekt vositalari yordamida operatsion jarayonlarning samaradorligi va firibgarlik xavfini kamaytirish imkoniyatlari o'rganildi. Tadqiqot natijalari sug'urta sohasini raqamlashtirish, milliy qonunchilikni takomillashtirish va xizmat sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

To'g'ri, insoniyat sivilizatsiyasi boshlangan davrdan bugungi kungacha bir necha ming yillar o'tgan. Ammo sug'urtaning fundamental, ilmiy asoslangan tamoyillaridan biri bo'lgan, turli hodisalar natijasida ko'rilgan zararlarni qoplash maqsadida zaxiralar shakllantirilishi bugungi kunda ham saqlanib qolgan.

N. Beknozov va U. Turg'unovlarning fikricha, maxsus sug'urta masalalari ayrim davlatlarda o'rta asrlardayoq yuzaga kelgan. Kichik sanoatning transport xizmati va xalqaro savdo-sotiqning rivojlanishi XVIII asrga kelib, Yevropa davlatlarida bunday xizmatning turlari va miqyosini kengaytirdi. Dastlab, asosan kemalar va yuklar sug'urta qilingan bo'lsa, keyinchalik yo'lovchilar va kema ekipaji a'zolarini majburiy sug'urtalash joriy etildi. Bu soha kengayib, turli xo'jalik faoliyatlarini, turli soha kishilarini sug'urtalash xizmatlari yuzaga kela boshladi [Beknozov N., Turg'unov U., 2004].

Ayrim manbalarda Angliyada dastlabki yozma sug'urta shartnomasi XIV asrda tuzilgan, Rossiyada 1827 yilda ilk marotaba yong'inga qarshi sug'urta jamiyati tashkil etilgan, Italiyada 1393 yilda har bir notarius haftasiga o'rtacha 80 nafar mijoz bilan sug'urta polisini tuzgan va nihoyat 1466 yilda Venesiyada Dengiz sug'urta kodeksi qabul qilinganligi qayd etilgan [Hamdamova M., 2018]. Ayrim yuridik manbalarda Rossiyada sug'urta huquqini kodifikatsiyalash bo'yicha ishlar 1879 yilda boshlanganligi haqida fikrlar ham mavjud [Raylyan A.I., 2007].

Ingliz tilidan olingan "insurance" atamasi "in" (-da, ichida) va "sure" (ishonch, ishonchli) so'zlaridan tashkil topgan bo'lib, "ishonchli qo'llarda" degan ma'noni bildiradi. Demak, sug'urta qilingan obyekt ishonchli tarzda muhofazalangan va xavotirga o'rin yo'q [Qardosh N., 2005].

Bugungi kunda mamlakatimizda ham ochiq bozor iqtisodiyotiga asoslangan odil jamiyat va kuchli demokratik huquqiy davlat qurish jarayonida sug'urta ishlab chiqarish infrastrukturasi zarur unsurlaridan biri sifatida, iqtisodiy islohotlarning uzluksizligini ta'minlashda va aholini noxush hodisalardan himoya qilishda o'ziga xos o'ringa ega [Aitboev U., 2004].

Shuningdek, "sug'urta" tushunchasi ilmiy adabiyotlarda, tegishli qonunlarda va xorijiy milliy qonunchilikda turlicha ta'riflangan. M.Yusupovga ko'ra, sug'urta – bu iqtisodiy kategoriya sifatida manfaatdor tashkilotlar va fuqarolar badallari hisobidan maxsus tashkilot (sug'urtalovchi) boshqaruvidagi pul jamg'armasini yaratish va taqsimlash shaklidir [Yusupov M., 2008]. E.Hojiev esa sug'urtani "keltirilishi mumkin bo'lgan zararni maxsus muassasaga a'zolik badalini to'lash orqali qoplash" deb tushuntiradi. T.Umarov fikricha, sug'urta – yuridik va jismoniy shaxslar to'laydigan sug'urta mukofotlari hisobidan muayyan sug'urta hodisasi yuz berganda ularga sug'urta tovonini to'lash orqali manfaatlarini himoya qilishdir [O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksiga sharh, 2013].

M.Yo'ldoshev va Y.Tursunov esa sug'urtani "sug'urtalovchi va sug'urtalanuvchi o'rtasida tuzilgan shartnomaga ko'ra, sug'urta hodisasi yuz berganda yuzaga kelgan moddiy zararlarni sug'urta badallari hisobidan qoplashga qaratilgan tadbirkorlik faoliyati" deb ta'riflaydi [Yo'ldoshev M., Tursunov Y.S., 2002]. Rossiyalik olimlar L.N. Klochenko va K.I. Pilovlarga ko'ra, sug'urta – korxonalar va aholining zararlardan himoya vositasi, iqtisodga investitsiyalar manbasi va jamiyatning barqarorligi asosidir [Klochenko L.N., Pilov K.I., 2002].

I.T. Balabanov va A.I. Balabanovlar "Straxovanie" kitobida sug'urtaning mohiyatini shunday ifodalaydi: "Sug'urtaning asosida qo'rquv yotadi. Men qo'rqaman va shuning uchun o'z qo'rquvimni kimgadir o'tkazaman va u orqali yuz berishi mumkin bo'lgan yo'qotishlardan himoyalananman" [Balabanov I.T., Balabanov A.I., 2002].

Iqtisodiy-huquqiy atamalarining izohli lug'atida sug'urta – sug'urta qildiruvchilar bo'nak vzooslari asosida shakllanadigan sug'urta fondi deb ko'rsatiladi [Ortiqov A., 1996], ayrim yuridik ensiklopediyalarda esa "jismoniy va yuridik shaxslarning mulkiy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha amalga oshiriladigan fuqarolik-huquqiy munosabatlar" deb ta'riflangan [Yuridik ensiklopediya, 2001].

Xorijiy adabiyotlarda ham sug'urta turlicha tushuntirilgan. Masalan, J. Sloman va M. Sutcliffe "Economics for Business" kitobida sug'urtani "tavakkalning aksi va xatarning oldini olish" deb tushuntiradi [John Sloman and Mark Sutcliffe, 2001]. Rossiyalik I.Y. Sekova sug'urtani yuridik tabiati bo'yicha "o'zaro kelishuv, ya'ni shartnoma" deb belgilaydi [Sekova I.Y., 2007].

Wikipedia yuridik portalida sug'urta shunday ta'riflangan: "Sug'urta qonunda va iqtisodda tavakkalni boshqarish vositasi bo'lib, kutilmagan zararlarni qoplashga xizmat qiladi. Sug'urta badali sug'urtani qoplash uchun to'lanadi, sug'urtalovchi – sug'urtani sotuvchi, sug'urtalanuvchi – sug'urtani sotib oluvchi shaxsdir" [Wikipedia].

A.P. Sergeev va Y.K. Tolstoy fikricha, sug'urtada maxsus tashkilotlar (sug'urtalovchilar) fuqarolar va tashkilotlar bilan shartnoma tuzib, ulardan badallarni yig'adi. Ushbu badallar evaziga sug'urtalovchida alohida sug'urta fondi shakllanadi va sug'urtalovchi ushbu fondan sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalanuvchiga to'lovni amalga oshiradi [Grajdanskoje pravo, 2003].

Shu manbalardan ko'rinib turibdiki, "sug'urta" tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud: kimdir fond, kimdir himoya vositasi, kimdir iqtisodiy munosabat yoki fuqarolik-huquqiy munosabat deb hisoblaydi. Sug'urta ham iqtisodiy, ham yuridik kategoriya sifatida murakkab va keng qirrali tushuncha ekanini ta'kidlash joiz.

Milliy qonunchilikda "sug'urta faoliyati" sug'urta bozori professional ishtirokchilari tomonidan sug'urtani amalga oshirish bilan bog'liq faoliyatni, "sug'urta xizmati" esa ushbu professional ishtirokchilar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar majmuini o'z ichiga oladi. Shu asosda "sug'urta" tushunchasini yuridik kategoriya sifatida aniq belgilash va "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi qonunda ifodalash maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Sug'urta sohasining rivojlanishi nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki fuqarolarning mulkiy manfaatlarini himoya qilishning muhim instrumenti sifatida ko'riladi. Tarixiy manbalar shuni ko'rsatadiki, sug'urta tushunchasi insoniyat taraqqiyotining dastlabki bosqichlaridan mavjud bo'lgan va doimiy ravishda iqtisodiy munosabatlar tizimida o'z o'rnini topib kelgan. Zamonaviy davrda sug'urta tizimi yuridik va iqtisodiy kategoriya sifatida shakllangan bo'lib, uning asosiy maqsadi sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalanuvchilar yoki sug'urta qildiruvchilarni moliyaviy zarar oldini olish va mulkiy manfaatlarini himoya qilishdir.

O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligida sug'urta faoliyati fuqarolik-huquqiy munosabatlarning bir turi sifatida tartibga solingan, bunda sug'urta qildiruvchilar va sug'urtalovchilar o'rtasida shartnomaviy asosda pul fondlari shakllantiriladi va ular sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalanuvchilarga to'lanadi. Shu bilan birga, chet el tajribasi – Ukraina, Rossiya, Xitoy va Yevropa mamlakatlari qonunchiligi – sug'urta tizimining universal prinsiplarini tasdiqlaydi va O'zbekiston sug'urta bozorini rivojlantirishda muhim ilmiy-amaliy asos yaratadi.

Zamonaviy davrda sug'urta tizimining raqamli transformatsiyasi, ya'ni Yagona Avtomatlashtirilgan Axborot Tizimi (YAAT), elektron polislar, CRM/ERP tizimlari, sun'iy intellekt va fraud-kontrol tizimlari orqali amalga oshirilishi sug'urta kompaniyalarining operatsion samaradorligini oshiradi, firibgarlik xavfini kamaytiradi va mijozlarga tezkor, qulay hamda xavfsiz xizmat ko'rsatish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish sug'urta bozori institutsional barqarorligini mustahkamlashga, moliyaviy va texnologik integratsiyani ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, sug'urta nafaqat iqtisodiy, balki yuridik nuqtai nazardan ham muhim ijtimoiy-iqtisodiy mexanizm bo'lib, uning tizimli rivojlanishi va raqamlashtirilishi mamlakatimizda barqaror, shaffof va raqobatbardosh sug'urta bozorini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sug'urta sohasida raqamlashtirish choralarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar:

1. Milliy qonunchilikni takomillashtirish. Sug'urta tushunchasining yuridik ta'rifini yanada aniq va mukammal shakllantirish, jumladan, mulkiy manfaatlar va boshqa manbalar hisobidan shakllanadigan pul fondlarini qonuniy mustahkamlash, shuningdek, sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urtalovchining majburiyatlarini ochiq bayon etish.

2. Raqamli transformatsiyani kengaytirish. YAAT, elektron polislar, CRM/ERP tizimlari va sun'iy intellekt asosidagi avtomatlashtirishni sug'urta kompaniyalarining barcha tarmoqlarida joriy etish, shu orqali operatsion samaradorlikni oshirish va mijozlar qoniqishini maksimal darajada ta'minlash.

3. Xodimlarning raqamli kompetensiyasini oshirish. Sug'urta xodimlarini zamonaviy texnologiyalar bo'yicha o'qitish, raqamli savodxonlikni oshirish va innovatsion boshqaruv vositalarini o'zlashtirish orqali raqamli transformatsiya jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlash.

4. Sug'urta bozorini institutsional mustahkamlash. Fraud-kontrol, elektron arxiv va onlayn platformalar yordamida bozorning shaffofligini oshirish, firibgarlik va xavf-xatarlarni kamaytirish, shu bilan birga raqobatbardoshlikni rivojlantirish.

5. Xorijiy tajribani tatbiq etish. Ukraina, Rossiya, Xitoy va Yevropa mamlakatlari sug'urta qonunchiligi va amaliy tajribalarini o'rganib, milliy qonunchilik va sug'urta amaliyotiga moslashtirilgan tavsiyalar ishlab chiqish.

6. Sug'urta madaniyatini rivojlantirish. Aholi va korxonalarda sug'urta xizmatlaridan foydalanish madaniyatini oshirish, raqamli xizmatlar orqali mijozlarga qulaylik yaratish va ishonchni mustahkamlash.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Адамчук Н.Г. Мировой страховой рынок на пути к глобализации. – М.: РОССПЕН, 2004. – 591 с.
2. Александрова М.М. Страхование: Учебно-методическое пособие. – К.: СУЛ, 2002. – 208 с.
3. Абдуракхмонов И.Х., Казансева А.К., Носирова Г.А. Теория и практика страхования. Ўқув қўлланма. – Т.: Молия-иқтисод, 2018. – 425 б.
4. Гомеля В.Б., Гуленти Д.С. Страховой маркетинг (Актуальные вопросы методологии, теории и практики). Второе издание. – М.: Анкил, 2000. – 128 с.
5. Загородний А.Г., Вознюк Г.Л. Страхование: Терминологический словарь. 2-е дополненное издание. – Лвов: Видавництво “Бескид Бит”, 2002. – 104 с.
6. Sheppaev X.M., Khalikulova G.T. Sug'urta marketingi. O'quv qo'llanma. – T.: Yangi nashr, 2012. – 212 b.
7. Шикхов А.К. Страхование: Учеб. пособие для студентов вузов. – М.: ЮНИТИ, 2000. – 431 с.
8. Юлдашев Р.Т. Страховой бизнес. Словарь-справочник. – М.: Анкил, 2000. – 272 с.
9. Qo'ldoshev Q.M. Sug'urta bozori. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya-iqtisod, 2011. – 65 b.
10. Thoys R. Insurance Theory and Practice. – 2010. – 340 p.
11. Cecchini P., Jopp F., Heinemann. The Incomplete European Market for Financial Services (ZEW Economics Studies 19). – 2003. – 187 p.
12. Sloman J., Sutcliffe M. Economics for Business. – Harlow: 2001. – p. 111.
13. Krawczyk M.W., Trautmann S.T., van de Kuilen G. Catastrophic Risk: Social Influences on Insurance Decisions. Theory and Decision, 2016, 1–18. doi:10.1007/s11238-016-0571-y
14. Beknozov N., Turg'unov U. Sug'urta: Manfaat va samaradorlik. // Hayot va qonun, 2004. – №1. – B. 41.
15. Yo'ldoshev M., Tursunov Y. Sug'urta faoliyati ahamiyati. // Bozor, pul va kredit, 2002. – №2. – B. 65.
16. Boblcheff C., Chaney T., Gollier C. Analysis of Systemic Risk in the Insurance Industry. The Geneva Risk and Insurance Review, 2016, 41(1), 73–106. doi:10.1057/grir.2016.1

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100